Madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantirishda til elementlarini o'rgatish usullari haqida olib borilgan tadqiqotlar bu jarayonda samaradorlikni oshirishga katta hissa qo'shmoqda. Til o'rgatishda lingvistik elementlarning madaniy kontekstda o'rganilishi talabalarni tilni chuqurroq tushunishga, undan to'g'ri foydalanishga yordam beradi. M.Bayram va M.Fleming madaniyat va tilning o'zaro bog'liqligini hisobga olgan holda, tilni o'qitishda til elementlarini o'z ichiga oluvchi metodlarni taklif qilgan. Ularning tadqiqotlariga ko'ra, til elementlarini faqat leksik va grammatik darajada emas, balki madaniyatning turli jihatlarini aks ettiruvchi ifodalar, maqollar, va frazeologik birikmalar orqali o'rgatish talabalarning muloqot qobiliyatlarini yanada kuchaytiradi [9]. Ushbu yo'nalishda A.Barro tomonidan amalga oshirilgan tadqiqot til o'rgatishda tilni "etnografik yondashuv" orqali o'rganishni tavsiya qilishgan [5]. Bu usulda talabalar tilni nafaqat kommunikativ vazifalarni bajarishda, balki o'sha madaniyatning ijtimoiy va madaniy kontekstida ishlatishni o'rganadilar. Jumladan, A.Barro til elementlarini o'zlashtirish jarayonida madaniyatni to'laqonli qamrab olish uchun talabalarga "kuzatuvchi etnograf" sifatida yondashishni tavsiya etgan. Bunday yondashuv orqali talabalarda madaniyatlararo muloqotda xabardorlik shakllanadi, shuningdek, boshqa madaniyatlar haqidagi bilimlari kengayadi.

Madaniy jihatlarni hisobga olgan holda, K.Kramsh til o'qitishda "madaniy komponent"ning ahamiyatini ta'kidlab, til elementlarini o'qitishda ularning madaniy kontekstda qanday ishlatilishini tushuntirish orqali talabalarning o'rganayotgan tilni chuqurroq anglashlariga yordam berishini dalillashga harakat qilgan [14]. K.Kramshning tadqiqotlari til elementlarini o'rganish jarayonida til o'rganuvchilarni o'sha madaniyatning qadriyatlarini va normativ qoidalari bilan tanishtirish kerakligini ko'rsatadi. Uning fikricha, til elementlarining madaniyat bilan uzviy bog'liqligini anglagan talabalar madaniyatlararo muloqotda ko'proq muvaffaqiyatga erishadilar.

Ilg'or tadqiqotlardan yana biri – P.Benson va P.Voler tomonidan ishlab chiqilgan "avtonom o'rganish" modeli bo'lib, u til o'rganuvchilarga mustaqil ravishda madaniy jihatlarni o'rganish imkoniyatini beradi [7]. Ushbu yondashuvda talabalarga mustaqil ravishda materiallarni o'qish, ko'rish yoki tinglash orqali o'zlarining madaniy bilimlarini kengaytirish tavsiya etiladi. B.Benson va P.Voler madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirishda talabalarga madaniyat bilan bog'liq til elementlarini o'rganishda avtonom uslubni taklif etishgan bo'lib, bu usul talabalarga tilni nafaqat dars sharoitida, balki real hayotdagi kontekstlarda ham qo'llash imkonini beradi [7]. Boshqa bir tadqiqotda, B.Tomalin va S.Stempleski til va madaniyatni birgalikda o'rganishning muhimligini ta'kidlab, "madaniy kapsulalar" deb ataluvchi maxsus dars shaklini ishlab chiqishgan [17]. Ularning fikriga ko'ra, darslarda til elementlarini o'rganish jarayonida o'sha madaniyatning tarixiy, ijtimoiy va madaniy qirralarini o'rganish talabalarga boshqa madaniyat vakillari bilan samarali muloqot qilish imkonini yaratadi. Bu metod orqali talabalarda madaniy sezgirlik rivojlantiriladi va ularning lingvistik bilimlari yanada boyitiladi. Shu bilan birga, til o'qitishda til elementlarini qo'llash usullaridan yana biri – autentik materiallardan foydalanishdir. E.Passov til o'qitishda

autentik materiallarning ahamiyatini ta'kidlab, til o'rganuvchilarga real hayotiy kontekstni taqdim qilishning til o'zlashtirishda foydali ekanligini qayd etgan [16]. Bu usul talabalarga haqiqiy muloqot vaziyatlarini tushunish va tilni bu kontekstlarda qanday ishlatishni anglash imkoniyatini beradi. E.Passovning fikricha, autentik materiallardan foydalanish til o'rganuvchilarni madaniy farqlar va ularning tilga bo'lgan ta'sirini tushunishda yordam beradi.

Yuqorida tahlilga tortilgan tadqiqotlar shuni anglatadiki, til elementlarini o'rgatishda turli metodlardan foydalanish talabalarning madaniyatlararo kompetensiyasini shakllantirishda samarali natija berar ekan. Til va madaniyatni birgalikda o'rgatish nafaqat til bilimlarini oshiradi, balki talabalarning boshqa madaniyat vakillari bilan o'zaro aloqalarida ko'proq tushunuvchanlik va ochiqlikni shakllantiradi. Shu sababli, o'qituvchilar keltirilgan metodlarni qo'llash orqali talabalarni xalqaro muloqotda muvaffaqiyatli ishtirokchi sifatida tayyorlashlari mumkin, deb hisoblaymiz. Nazariy tahlillarni jamlagan holda mazkur kichik tadqiqotimiz metodologiyasi yuzasidan til elementlarini o'rganish jarayonini tahlil qilish uchun tinglab tushunish, o'qish, yozish va gapirish ko'nikmalari bo'yicha turli usullarni qo'llashga harakat qildik. Yondashuvlarimiz til elementlarini madaniy kontekstda o'zlashtirish va talabalarning madaniyatlararo kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan. Metodologiyada har bir ko'nikma turli yondashuvlar va mashqlar orqali chuqur tahlil qilinib, talabalarning ingliz tilini madaniy kontekstda o'zlashtirishini ta'minlash uchun ishlatildi.

**Tinglab tushunish** ko'nikmasi til elementlarini o'rganishning eng samarali usullaridan biri hisoblanib, tinglash jarayonida talabalarga autentik audio va video materiallar, jumladan, ingliz tilidagi suhbatlar, intervyular va radiodasturlar orqali real hayotiy vaziyatlarda ishlatiladigan ifoda hamda so'zlarning madaniy qirralarini tushunishga e'tibor qaratildi. Bunday usul talabalarga ingliz tilidagi talaffuz, urg'u va intonatsiya bilan tanishish imkonini beradi. Bundan tashqari, madaniy jihatdan xos bo'lgan frazeologik iboralar, jargon va xalq maqollari kabi til elementlari ham tinglash materiallari orqali o'rganildi. Tinglab tushunish mashg'ulotlari talabalarning turli madaniy kontekstlarda til elementlarini to'g'ri tushunish va muloqotda qo'llash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qildi.

**O'qish** ko'nikmasi til elementlarini o'zlashtirishda katta ahamiyatga ega bo'lib, ushbu usulda talabalarga ingliz tilida yozilgan badiiy va ilmiy matnlar, maqolalar, shuningdek, bloglar va ijtimoiy media postlari kabi real hayotiy kontekstlardan olingan materiallar taqdim etildi. Matnlarni o'qish orqali talabalar madaniyat bilan bog'liq bo'lgan til elementlarini, jumladan, metaforalar, idiomalar, madaniy ma'nolarga ega so'zlar va boshqa leksik birliklarni o'rganishga muvaffaq bo'ldilar. O'qish jarayonida talabalar matnning umumiy mazmunini anglab, til elementlarini madaniy kontekstda tushunish va ularning ma'nosini to'g'ri talqin qilishga o'rgandilar. Shu tariqa, o'qish mashg'ulotlari orqali talabalar turli madaniy mavzularda bilim olishlari va tilni kontekstga mos ravishda qabul qilishlari ta'minlandi.

**Yozish** ko'nikmasi til elementlarini faol qo'llash imkonini beradi. Yozish mashg'ulotlarida talabalarga madaniyat bilan bog'liq mavzularda insho yozish, blog postlari yaratish yoki xalqaro mavzularda munozara matnlarini tayyorlash topshiriqlari berildi. Yozma mashg'ulotlar davomida talabalar til elementlarini o'zlarining fikrlarini ifodalash jarayonida qanday qo'llashni o'rgandilar. Bu usul orqali ular nafaqat grammatik jihatdan to'g'ri yozish, balki madaniy kontekstda til elementlarini to'g'ri qo'llash qobiliyatini ham rivojlantirdilar. Yozish mashg'ulotlari talabalarga madaniy jihatdan mos ifodalarni ishlatish, o'z fikrlarini xilma-

xil til uslublari bayon qilish va boshqa madaniyat vakillari bilan samarali muloqot qilish imkonini berdi.

**Gapirish** ko'nikmasi esa til elementlarini to'g'ridan-to'g'ri va faol muloqotda qo'llash imkoniyatini bergani sababli, mazkur ko'nikmani rivojlantirish uchun talabalarga turli muloqot vaziyatlarida til elementlarini qo'llash mashqlari o'tkazildi. Talabalarga turli madaniy mavzularda suhbat qurish, xalqaro tadbirlarga oid roli o'yinlar tashkil etish va taqdimotlar o'tkazish imkoniyati yaratildi. Bu jarayonda talabalar real hayotiy kontekstlarda ingliz tilidagi madaniy elementlarni qo'llashni o'rganib, ularning muloqotdagi rolini yanada yaxshi tushunishga erishdilar. Gapirish mashg'ulotlari talabalarga nafaqat lingvistik ko'nikmalarini rivojlantirish, balki madaniyatlararo kompetensiyani mustahkamlash imkonini berdi.

Ushbu tadqiqotda qo'llanilgan metodlar va usullar tinglab tushunish, o'qish, yozish va gapirish ko'nikmalarini integratsiyalash orqali talabalarining ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlar madaniyatlari bilan bog'liq elementlarni samarali o'rganishiga imkon yaratdi. Albatta, bunday yondashuv madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, talabalarga tilni faqat kommunikativ vosita sifatida emas, balki o'zga madaniyatlarni anglash va ularga moslashish vositasi sifatida qabul qilish imkonini berdi. Shu sababli, til elementlarini o'rgatishda har bir ko'nikmani madaniy kontekstda rivojlantirish talabalarining xalqaro darajada muvaffaqiyatli muloqot qilish qobiliyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega, degan fikrga keldik.

Tadqiqotimizda tajriba guruhi sifatida xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) yo'nalishida tahsil olayotgan 2-kurs talabalarini o'z ichiga oldi. Guruh tarkibida jami 22 nafar talaba bo'lib, ularning barchasi ushbu tadqiqotda faol ishtirok etdi. Talabalar til va madaniyatlararo kompetensiya asoslarini o'rganuvchi amaliy mashg'ulotlarda ishtirok etib, ular orasida turli darajadagi til bilimiga ega talabalar mavjud bo'lib, bu tadqiqotning samaradorligini aniqlashda muhim omil bo'ldi. Tadqiqotda ularning ingliz tili elementlarini madaniy kontekstda o'zlashtirish qobiliyati va madaniyatlararo kompetensiyasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi.

Tadqiqot amalga oshirilgan muhit sifatida "O'qish va yozish amaliyoti" fani tanlandi. Bu fan talabalarining til o'rganish jarayonida o'qish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, unda talabalar madaniyat va til o'rtasidagi aloqadorlikni chuqurroq tushunishga imkon beruvchi mashqlar bilan shug'ullandilar. O'qish va yozish amaliyoti fani davomida talabalarga til elementlarini madaniy kontekstda ishlatish imkonini beruvchi mashg'ulotlar taqdim etildi. Ushbu muhit talabalarni turli madaniy kontekstlarda o'z fikrlarini ifodalashga va turli madaniyat vakillari bilan samarali muloqot qilishga tayyorlashda qulay sharoit yaratdi. Amalga oshirilgan kichik tadqiqotimiz talabalarining ingliz tilidagi lingvistik ko'nikmalarini madaniy jihatdan boyitish va ularni xalqaro muloqotda samarali foydalanish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar bilan ta'minlashga qaratilgan.

Tadqiqotimizda ma'lumot to'plash va tahlil qilish uchun turli usullar qo'llanildi. Tajriba guruhida o'tkazilgan tadqiqot natijalarini aniqlash uchun sifat va miqdoriy usullar birgalikda ishlatildi. Quyida tadqiqot davomida qo'llangan asosiy usullar va ular orqali olingan ma'lumotlar tahlil qilish jarayonlari keltirilgan:

### **1. So'rovnoma**

Tadqiqotning dastlabki bosqichida talabalar o'rtasida so'rovnoma o'tkazildi (batafsil<sup>1</sup>). Ushbu so'rovnomada talabalarning ingliz tili elementlarini madaniy kontekstda qabul qilish darajasi, o'quv materiallarini tushunish qobiliyati va madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi darajasi baholandi. So'rovnoma savollari Likert shkalasi asosida tuzilgan bo'lib, talabalar har bir savolga o'z baholarini berishdi. Bu usul talabalarning boshlang'ich bilim darajasini va tadqiqot oxirida qilingan o'zgarishlarni aniqlashda yordam berdi.

1-jadval. So'rovnoma natijalari

Javob variantlari	To'liq qo'shilaman	Qo'shilaman	Betarafman	Qo'shilmayman	Umuman qo'shilmayman
Talabalarning foizi (%)	41%	36%	9%	9%	5%

## 2. Kuzatuv

Tadqiqot davomida talabalar darslarda faol ishtirok etishdi va ularning turli madaniy vaziyatlarda til elementlarini qo'llash qobiliyati kuzatildi. Kuzatish jarayonida o'qituvchi tomonidan talabalarning muloqotda ishlatgan til uslublari, frazeologik birikmalar va madaniy kontekstga oid so'zlarni qo'llash qobiliyati baholandi. Bu usul orqali olingan ma'lumotlar tadqiqotning sifat jihatini chuqurroq o'rganishga yordam berdi. Kuzatuv natijalari 2-jadvalda keltirilgan:

2-jadval. Kuzatuv natijalari

Kuzatilgan ko'nikmalar	1-dars	5-dars	10-dars
Madaniy kontekstga oid so'zlarni to'g'ri ishlatish	59%	73%	91%
Frazeologik birikmalarni qo'llash	55%	68%	86%
Til uslublarni farqlay olish	50%	64%	81%

## 3. Test va baholash

Tadqiqot so'nggida talabalarning madaniyatlararo kompetensiyasini va til elementlarini qo'llash qobiliyatini baholash uchun testlar olindi (batafsil<sup>2</sup>). Test materiallari madaniy kontekstga oid til elementlarini o'z ichiga oldi. Bu usul orqali har bir talabaga ma'lum davrda olgan bilimlarini baholash imkoniyati berildi hamda tadqiqotdan oldingi va keyingi natijalar solishtirildi. Test natijalari tahlil qilinib, umumiy o'rtacha ballar jadvallarda keltirildi.

## 4. Intervyular

Talabalarning til elementlarini o'zlashtirish jarayonidagi tajribalarini chuqurroq o'rganish uchun yakka tartibdagi intervyular o'tkazildi. Intervyular davomida talabalardan darslarda o'rganilgan til elementlarini madaniy kontekstda tushunish va qo'llash tajribasi haqida so'raldi. Bu usul talabalarning til o'rganish jarayonidagi qiyinchiliklarini va muvaffaqiyatlarini tahlil qilish imkonini berdi.

## 5. Ma'lumotlarni tahlil qilish

Tadqiqotda to'plangan ma'lumotlar sifat va miqdoriy jihatdan tahlil qilindi. So'rovnoma va test natijalari statistika usullari orqali tahlil qilinib, umumiy o'rtacha ko'rsatkichlar hisoblandi. Kuzatish va intervyular orqali olingan sifat ma'lumotlari kontent tahlil usuli yordamida baholandi. Bu jarayon talabalarning madaniyatlararo kompetensiyasini oshirishdagi rivojlanishni to'liq aniqlashga va tadqiqotning samaradorligini baholashga imkon

<sup>1</sup> <https://drive.google.com/file/d/1rll-IHplk1Bt9XEwjQHgvW5QRPFqziiv/view?usp=sharing>

<sup>2</sup> [https://drive.google.com/file/d/1u6OybhphFs3vF4jdhavhwhFPNdYW\\_QrW/view?usp=sharing](https://drive.google.com/file/d/1u6OybhphFs3vF4jdhavhwhFPNdYW_QrW/view?usp=sharing)

berdi. Umuman olganda, ushbu ma'lumot to'plash, tahlil qilish usullari tadqiqot natijalarining ishonchligini ta'minlash va talabalarning madaniyatlararo kompetensiyasini rivojlantirishda qanday yutuqlar erishilganini ko'rsatish imkonini berdi.

**Natijalar.** Tadqiqotimiz davomida talabalarning ingliz tilidagi madaniy elementlarni qo'llash orqali madaniyatlararo kompetensiyasining rivojlanishi baholandi. Ushbu baholash uchun Student-Fisher metodi qo'llanildi, bu esa talabalar orasidagi bilim darajasidagi o'zgarishlarni aniqroq ko'rsatishga imkon berdi. Ushbu kichik tajriba-sinov ishimiz 2024-yilning sentyabr va oktyabr oylarida olib borildi va ikki bosqichda – tadqiqot boshida va oxirida amalga oshirilgan baholash natijalariga asoslanib samaradorlik ko'rsatkichi aniqlandi.

**Baholash Jarayoni:** Student-Fisher metodi yordamida tadqiqotning boshlang'ich va yakuniy natijalari taqqoslanib, talabalarning madaniyatlararo kompetensiyada qanchalik o'zgarishlar ro'y berganligi o'rganildi. Ushbu metodni qo'llash natijasida ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlar madaniyatiga xos til elementlarini tushunish va qo'llash ko'nikmalarining sezilarli darajada rivojlangani qayd etildi.

**Samaradorlik ko'rsatkichi:** Sentyabr oyida olib borilgan dastlabki kuzatish natijalari talabalarning madaniy til elementlarini tushunish darajasining nisbatan quyi ekanligini ko'rsatdi. O'qish va yozish amaliyoti fani davomida darslarda autentik materiallar, real hayotiy vaziyatlarga asoslangan mashqlar va suhbatlar orqali ingliz tilidagi madaniy so'z va ifodalarni o'zlashtirishga ko'proq e'tibor berildi. Oktyabr oyida qayta baholash natijalari shuni ko'rsatdiki, talabalarning umumiy bilim darajasi va til elementlarini madaniy kontekstda qo'llash qobiliyati 13,4% ga oshdi. Bu ko'rsatkich talabalarning madaniyatlararo kompetensiyasi rivojlanishi uchun tanlangan usullar samarali ekanligini ko'rsatdi.

**Student-Fisher Metodi Natijalari:** Student-Fisher metodidan foydalanish orqali talabalarning dastlabki va oxirgi baholash natijalari o'rtasidagi sezilarli farq aniqlandi (batafsil<sup>1</sup>). Olingan ma'lumotlar tahlili asosida madaniyat bilan bog'liq til elementlarini o'zlashtirish orqali talabalarning xalqaro muloqotda ishtirok etish qobiliyati yaxshilandi, deb hisoblash mumkin.

### 3-jadval. Olingan ma'lumotlar tahlili

O'quv yili	Dastlabki baholash (Sentyabr)	Yakuniy baholash (Oktyabr)	O'zgarish darajasi
2024-yil	72,6%	86%	+13,4%

3-jadvalda ko'rsatilganidek, tadqiqotning boshlang'ich va oxirgi natijalari orasidagi 13,4% samaradorlik o'sishi talabalarning til elementlarini madaniyat bilan bog'liq holda o'rgatish orqali madaniyatlararo kompetensiyasi sezilarli darajada rivojlanganligini ko'rsatdi. Bu o'sish talabalarning madaniy jihatlariga bog'liq bo'lgan til elementlarini chuqurroq tushunishga va ularni muloqotda to'g'ri qo'llashga imkon berdi. Shu sababli, til va madaniyatni birgalikda o'rgatishning talabalarning o'zga madaniyatlarni anglash va ularga hurmat bilan munosabatda bo'lish ko'nikmalarini oshirishdagi ahamiyati aniqlandi. Natijalar shuni ko'rsatyaptiki, madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirish uchun til elementlarini madaniy kontekstda o'rgatish usuli samarali bo'lib, talabalarning xalqaro maydonda muvaffaqiyatli muloqot qilish qobiliyatini oshirishga xizmat qiladi. Kichik tajriba davomida o'tkazilgan kuzatuv va testlar talabalarning ingliz tilidagi madaniy elementlarni

<sup>1</sup> <https://drive.google.com/file/d/13pP2e4EJnERwNI25ayinSZBM-94Sl6Dd/view?usp=sharing>

tushunish va fikrlash qobiliyatlarida sezilarli o'zgarishlar kuzatilganini ko'rsatdi. Madaniy kontekst yo'g'rilgan til elementlarini chuqurroq o'zlashtirish uchun autentik materiallar va ingliz madaniyati aks ettirilgan mashqlar qo'llanildi, bu esa talabalarning madaniyatlararo kompetensiyasini rivojlantirishga yordam berdi. Quyida madaniyatlararo muloqotda til elementlarining o'rgatish bo'yicha bir nechta namunalar keltiramiz:

**Xalq maqollari va ulardagi mazmuni o'rgatish** – ingliz tilidagi xalq maqollari, masalan, *“Actions speak louder than words”* yoki *“The early bird catches the worm”* kabi iboralar o'ziga xos qadriyatlarni aks ettiradi. Talabalar bu maqollarning asl ma'nosini va ular orqali qanday tushunchalar ifodalanishini o'rganganlarida, o'zga madaniyatlar vakillarining qadriyatlarini anglash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Maqollarni o'rgatish jarayonida ularning o'z madaniyatimizdagi ekvivalentlariga solishtirish orqali talabalar madaniy jihatdan xilma-xil tushunchalarni qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradilar.

**Etnomadaniy xususiyatlarga ega so'zlar va iboralardan to'g'ri foydalanish** – ingliz tilida *“privacy”* yoki *“personal space”* kabi atamalar anglo-sakson madaniyatida muhim tushunchalarni aks ettirib, bu atamalarni tushuntirish orqali o'qituvchilar talabalarni boshqa madaniyatlarning o'ziga xos qadriyatlarini hurmat qilishga o'rgatadilar. Misol uchun, *“personal space”* tushunchasini tushunish hamda uni madaniy jihatdan to'g'ri talqin qilish talabalarni xalqaro munosabatlarda shaxsiy hududga nisbatan ehtiyotkor yondashishga o'rgatadi.

**Turli madaniy murakkabliklarni ko'rsatuvchi misollarni ishlatish** – ingliz tilida ishlatiladigan *“small talk”* ifodasi ko'plab madaniyatlarda mavjud bo'lmasa-da, ingliz tilida bu ijtimoiy muloqotda muhim rol o'ynaydi. *“Small talk”* talabalarga madaniy jihatdan nozik mavzularda suhbatni qanday boshlash va davom ettirish qoidalarini o'rgatish uchun yaxshi misol bo'lib xizmat qiladi. Bu talabalarga xalqaro suhbatlarda madaniy jihatdan to'g'ri munosabat bildirish imkonini beradi.

**Taomlar va bayramlar bilan bog'liq til elementlari** – ingliz tilida *“Thanksgiving”* yoki *“Christmas”* kabi bayramlarga oid til elementlarini o'rgatish orqali talabalar Amerika yoki Britaniya madaniyatlari haqida chuqurroq bilim oladilar. Bayramlar bilan bog'liq so'z va iboralarni o'rganish orqali talabalar boshqa madaniyatlarning an'analarini hurmat qilishga va ularni to'g'ri qabul qilishga o'rganadilar. Bu esa, ularning madaniyatlararo xabardorliklarini rivojlantirishga yordam beradi.

**Muhokama.** Ushbu tadqiqot natijalari til o'qitishda madaniy elementlarni qo'llash va madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirish borasida olib borilgan boshqa tadqiqotlar bilan qiyoslanganda qator o'ziga xosliklarni ko'rsatadi. Birinchidan, ushbu tadqiqot til elementlarini madaniy kontekstda o'rgatish orqali talabalarning madaniyatlararo xabardorligini oshirishni ko'zda tutgan bo'lsa, izlanuvchi S.Abdukhaliyeva tadqiqotlari madaniyatlararo muloqotda yuzaga keladigan xato va to'siqlarni o'rganishga qaratilgan edi[1]. Uning tadqiqotlari ko'proq madaniyatlar o'rtasidagi farqlarni aniqlash va qiyinchiliklarni bartaraf etish yo'llariga e'tibor qaratgan bo'lsa, ushbu tadqiqotda madaniy xos til elementlarini o'rgatish orqali talabalarda madaniy xabardorlikni rivojlantirish masalasiga urg'u berildi.

Mazkur tadqiqotda til va madaniyat elementlarini birgalikda o'qitishning samaradorligi ko'rsatilgani G.Alfred, M.Bayram va M.Fleming tomonidan olib borilgan tadqiqotlariga yaqin, deb ayta olamiz. Ular tilni o'qitishda etnografik yondashuv va madaniy komponentni qo'llashni tavsiya qilgan bo'lib, ushbu yondashuv orqali talabalar boshqa madaniyatlarni anglash qobiliyatini rivojlantirishi mumkinligini ta'kidlagan[3]. Biroq, bizning ishimizdan farqli

ravishda, S.Abdukhalimova ishida madaniyatlararo muloqotdagi to'siqlarni o'rganishda ko'proq empirik usullar qo'llanilgan va talabalarning o'z madaniyatidan farqli bo'lgan hodisalarga qanday munosabatda bo'lishlari tahlil qilingan.

Tadqiqotchi M.Ahmedova tomonidan olib borilgan izlanishlarda ko'rinadi, u o'zbek va ingliz stereotiplari o'rtasidagi madaniyatlararo nizolarni o'rgangan[2] hamda bu izlanish ko'proq madaniyatlar o'rtasidagi stereotiplardan kelib chiqadigan muloqotdagi qiyinchiliklarga qaratilgan bo'lsa, bizning tadqiqotda til o'qitish jarayonida madaniy xos til elementlarini o'rgatish orqali talabalarda madaniyatlararo sezgirlikni oshirishga qaratilgan metodlar sinovdan o'tkazildi. Bu talabalarni turli madaniy kontekstlarda muammosiz muloqot qilishga o'rgatish va stereotiplarni yengish usulini o'z ichiga oladi. Shunday qilib, ushbu tadqiqot madaniy elementlarni til o'qitish orqali stereotiplarni kamaytirishning samaradorligini ko'rsatmoqda.

Izlanuvchi G.Babayeva tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ham ushbu tadqiqot natijalari bilan solishtirganda madaniyatlararo muloqotni shakllantirishda lingvistik asoslar va ijtimoiy omillarga katta e'tibor qaratilgan[4]. G.Babayeva o'z ishida madaniyatlararo muloqotda lingvistik bilimlarning ahamiyatiga urg'u bergan, ammo unda til elementlarini o'qitishning madaniyat bilan bog'liq xususiyatlari chuqur o'rganilmaganligi mazkur ishimizdagi til elementlarini madaniy kontekstda o'qitish orqali madaniyatlararo muloqotda xabardorlikni oshirishga qaratilganligi bilan farqlanadi. Bu farq esa talabalarning tilni o'rganishda til elementlarini madaniyat bilan bog'liq holda to'g'ri qo'llash qobiliyatini rivojlantirishning muhimligini ko'rsatib beradi.

Demak, maqolamizda ilgari surilgan muammo til o'qitish jarayonida madaniy elementlardan foydalanish orqali talabalarning madaniyatlararo muloqotda samaradorligini oshirish yo'nalishida boshqa tadqiqotlardan farqlanar ekan. Bizdagi natijalar, xususan, til o'qitishda madaniy jihatlarni integratsiyalash orqali madaniyatlararo sezgirlikni rivojlantirish, boshqa tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan nazariy va empirik yondashuvlarga muhim qo'shimcha manba bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Maqolamiz avvalida ham ta'kidlaganimiz kabi, madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirishda til elementlarining o'ziga xos jihatlari muhim ahamiyatga ega bo'lib, til, shunchaki kommunikativ vosita sifatida emas, balki madaniyatni aks ettiruvchi va uni tarbiyalovchi omil sifatida ham muhimdir. Til elementlari, jumladan, frazeologizmlar, idiomatik ifodalar, madaniy voqelikka xos so'zlar va ijtimoiy vaziyatlarda ishlatiladigan boshqa nutq unsurlari, talabalarda madaniyatlararo xabardorlikni oshirishga yordam beradi. Til elementlarini o'rgatish orqali madaniyatlararo muloqotda talabalarni samarali va moslashuvchan mutaxassis sifatida tayyorlash mumkin.

Birinchidan, **idiomatik ifodalar** va **frazeologik birikmalar** madaniyatlararo muloqotda katta rol o'ynaydi, chunki bu elementlar har bir madaniyatning o'ziga xos ma'no qatlamlarini ifodalaydi. Masalan, ingliz tilida *"a piece of cake"* kabi iboralar biror narsa oson bo'lishini bildiradi, lekin bu ifodaning to'g'ridan-to'g'ri tarjimasida boshqa madaniyatlarda tushunarsiz bo'lishi mumkin. Shuningdek, *"break the ice"* yoki *"hit the nail on the head"* kabi ifodalar, bizning talabalar uchun g'ayrioddiy tuyulishi mumkin. Bu idiomalarni o'rgatish jarayonida ularning madaniy kontekstini tushuntirish orqali talabalar ushbu ifodalarni madaniyat bilan bog'liq holda anglaydilar. Misol uchun, *"break the ice"* ifodasi madaniy jihatdan ijtimoiy muhitda muloqotni boshlash yoki to'siqlarni bartaraf etish ma'nosini anglatadi. Bu

ifodaning ma'nosini tushunish talabalarni xalqaro aloqalarda ijtimoiy muhitga moslashishga o'rgatadi. Shunday qilib, talabalar bu kabi iboralarni madaniyat bilan bog'liq ma'noda tushunib, ularni o'z muloqotlarida ishlatishni o'rganadilar. Bu esa o'z navbatida, talabalarda madaniyatga nisbatan ochiqlik va hurmat hissini shakllantiradi. Ikkinchidan, **salomlashish va shu kabi muloqot qoidalari** ham madaniyatlararo muloqotda muhim ahamiyatga ega. Ingliz tilida "How are you?" kabi salomlashuv, ko'pincha, suhbatni samimiy boshlash uchun ishlatiladi, lekin uning asl ma'nosi so'ralayotgan shaxsning holatini bilishga urinish emas, balki ijtimoiy talabdan iboratdir. Bu kabi salomlashish qoidalarini talabalar o'rganishi natijasida ular madaniyatlararo muloqotda boshqa madaniyat vakillari bilan muloqotda samimiy va moslashuvchan bo'lish imkoniyatini hosil qiladilar. Bunday jihatlarni tushunish talabalarga boshqa madaniyat vakillari bilan muloqot qilishda xato va noqulayliklardan qochishga yordam beradi. Uchinchidan, madaniyatlararo kompetensiya rivojida **etnomadaniy xususiyatlarga ega so'zlar** katta ahamiyatga ega bo'lib, "privacy" yoki "individualizm" kabi tushunchalar ingliz tilida va anglo-sakson madaniyatida keng tarqalgan hamda chuqur madaniy mazmunga ega. Bunday so'zlarning asl ma'nosini va ularning madaniy ahamiyatini anglash orqali talabalar o'zga madaniyat vakillari bilan samarali muloqot qilish uchun zarur bo'lgan asosiy bilimlarni egallaydilar. Shuningdek, bu til elementlarini o'rganish madaniyatlararo muloqotda shaxsiy va ijtimoiy chegaralarni hurmat qilishni o'rgatadi. To'rtinchidan, til elementlarini o'z ichiga olgan **autentik materiallardan foydalanish** madaniyatni til orqali o'rgatishda juda samarali bo'lishi mumkin. Misol keltiradigan bo'lsak, ingliz tilidagi televidion dasturlar, filmlar yoki ijtimoiy media postlari orqali talabalarga real hayotdagi madaniy muhit taqdim etiladi. Bu materiallar yordamida talabalar ingliz tilida ishlatiladigan madaniy xos til uslublarini va ularning turli vaziyatlarda qanday qo'llanilishini o'rganadilar. Autentik materiallar talabalarga xalqaro aloqalarda samarali ishtirok etish uchun zarur bo'lgan tayyorgarlikni ta'minlaydi.

Shunday qilib, til elementlarining o'ziga xos jihatlari madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Tilni o'rgatishda bu elementlarni madaniy kontekstda o'zlashtirish orqali talabalar nafaqat lingvistik ko'nikmalarni egallaydilar, balki boshqa madaniyatlarni anglash va ularga moslashish qobiliyatini ham rivojlantiradilar. Shu sababli, til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlikni tushunish, talabalarining madaniyatlararo muloqotda muvaffaqiyat qozonishida asosiy o'rin tutadi.

Madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirish uchun til elementlarini o'rgatish jarayonida talabalar bir qator qiyinchiliklar ham kuzatiladi va ular asosan til va madaniyat o'rtasidagi tafovutlar, madaniy jihatdan xos bo'lgan til elementlarini tushunish va ularni to'g'ri qo'llash, shuningdek, lingvistik va madaniy qoidalar bilan bog'liqdir. Quyida dars jarayonida uchraydigan asosiy qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish usullari keltirilgan.

- Talabalar ko'pincha ingliz tilidagi idiomalar, maqollar va boshqa madaniy xos ifodalarni to'g'ri tushunishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Bunday til elementlari har bir madaniyatda o'ziga xos kontekst va ma'noga ega bo'lib, ularni tushunish uchun talabalar madaniy asoslarga ega bo'lishlari zarur. Masalan, "it's raining cats and dogs" kabi ifodani to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilish qiyin bo'lgani sababli talabalar uni noto'g'ri tushunishlari mumkin. Bunga yechim sifatida o'qituvchi madaniy kontekstni tushuntirishga ko'proq vaqt ajratishi va til elementlarini amaliy misollar orqali tushuntirishi lozim. Autentik materiallardan, jumladan, filmlar, ijtimoiy media postlari va turli madaniyatlarni aks ettiruvchi



videolardan foydalanish talabalar uchun qiziqarli va tushunarli usul bo'lib xizmat qilishi mumkin.

- Til elementlarini o'rganishda talabalar ko'pincha ularni madaniy kontekstda to'g'ri qo'llashda qiyinchiliklarga duch keladilar. Masalan, *“personal space”* tushunchasini anglatuvchi madaniy atamalarni to'g'ri qo'llash talabalarga notanish bo'lib, bizning madaniyatda shaxsiy hudud ko'pincha kengaytirilgan oilaviy munosabatlar bilan bog'liq, ammo angla-sakson madaniyatida esa shaxsiy hududning chegaralari ancha qat'iyroq hisoblanadi. Yechim sifatida o'qituvchi darslarda turli madaniy kontekstlarda qanday til qoidalar ishlatilishini taqqoslash mashg'ulotlarini tashkil etishi mumkin. Talabalarga shaxsiy hudud, xayrlashish usullari va boshqa madaniyatga oid qoidalar o'rganish uchun rolli o'yinlar va muloqotga asoslangan vazifalar berish samarali bo'ladi. Bu ularning madaniy sezgirligini oshirishga va muloqotda noqulayliklardan qochishga yordam beradi.
- Til va madaniyatni birgalikda o'rganish talabalar uchun murakkab bo'lishi mumkin, chunki ko'pchilik talabalar faqat grammatik qoidalar va leksikani o'rganishga urg'u beradi. Bu esa, o'z navbatida, madaniy jihatdan to'g'ri muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirishga to'sqinlik qiladi. Madaniy elementlarni chuqur anglamasdan, ularni to'g'ri qo'llash qiyin bo'lishi mumkin. Bu muammoni hal etish uchun o'qituvchilar talabalarga madaniyat va til o'rtasidagi bog'liqlikni tushuntirishga e'tibor qaratishlari kerak bo'ladi. Buning uchun madaniy kontentni integratsiya qilish, autentik materiallardan foydalanish va madaniy mavzudagi o'yinlar orqali talabalarning qiziqishini oshirish mumkin. Shuningdek, madaniyatlararo tafovutlarni tushunishga yo'naltirilgan seminarlar va debat mashg'ulotlari ham samarali hisoblanadi.
- Madaniyatlararo muloqot jarayonida madaniy farqlar sababli tushunmovchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Masalan, turli madaniy muloqot usullari, nutq uslublari va talaffuzdagi tafovutlar talabalar uchun qiyinchilik tug'diradi hamda xalqaro suhbatlarda bu kabi til tafovutlari sababli muloqotda qiyinchilikka uchraydi. Shu kabi tushunmovchiliklarni oldini olish uchun o'qituvchi talabalarni turli madaniy nuqtai nazardan o'rgatishga harakat qilishi kerak. Madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirish uchun turli madaniy tadbirlar va rolli o'yinlar tashkil qilish, shuningdek, autentik konvertatsiya matnlaridan foydalanish samarali bo'ladi. Shuningdek, talabalar o'zlarining madaniyatiga xos bo'lgan tushunchalarni qiyoslash va ularni boshqa madaniyatlar bilan solishtirish orqali madaniyatlararo farqlarni yaxshiroq anglashlari mumkin.

Yuqoridagi qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish usullari talabalarning madaniyatlararo kompetensiyasini rivojlantirish uchun samarali asos yaratadi, deb o'ylaymiz. Shu tarzda, talabalar til va madaniyat elementlarini birgalikda o'zlashtirish orqali xorijiy til (ingliz tili) muloqotida muvaffaqiyatli ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

**Xulosa.** Maqolamizda talabalarda madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirishda til elementlarining o'rni va ularning madaniy kontekstda o'qitilishining samaradorligi tahlil qilindi. Unda olib borilgan kichik tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, madaniyatga xos til elementlarini o'rganish va ularni qo'llash talabalarning xalqaro aloqalarga moslashuvchanligini oshirib, ularning madaniy sezgirligini rivojlantirishda katta ahamiyatga

ega. Madaniy frazeologizmlar, maqollar, idiomalar va salomlashish usullari kabi til elementlari talabalarga o'zga madaniyatlarining turli qirralarini anglash imkonini berdi va ularni xalqaro muloqotda muvaffaqiyatli ishtirok etishga tayyorladi. Natijalarimiz shuni anglatadiki, tilni uning madaniyati bilan integratsiyalashgan holda o'rgatish madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirish uchun zarur ekan. Shuningdek, talabalar til va madaniyatning o'zaro bog'liqligini anglagan holda o'zlarini global dunyoda o'z o'rnini topishga tayyorlashlari lozim hisoblanadi.

#### Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Abdukhalimova S. Errors and obstacles in intercultural communication // Journal of new century innovations. – 2023. – №20(4). – 108-112.
2. Ahmedova, M. E. Intercultural conflicts of Uzbek and English stereotypes // Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – №11. – 601-607.
3. Alred, G., Bayram, M., & Fleming, M. (2002). Intercultural experience and education. In Multilingual Matters eBooks. <https://doi.org/10.21832/9781853596087>
4. Babaeva, G. S. Madaniyatlararo muloqotni shakllantirish asoslari // Центральноеазиатский журнал образования и инноваций. – 2023. №2(9). – 59-62.
5. Barro, A. (1998). Cultural Practice in Everyday Life: The Language Learner as Ethnographer. Language Learning in Intercultural Perspective: Approaches through Drama and Ethnography/Cambridge University Press, 76-97.
6. Bennett, M. J. (1986). A developmental approach to training for intercultural sensitivity. International Journal of Intercultural Relations, 10(2), 179–196. [https://doi.org/10.1016/0147-1767\(86\)90005-2](https://doi.org/10.1016/0147-1767(86)90005-2)
7. Benson, P., & Voller, P. (1997). Autonomy and independence in language learning. System, 25(4), 584–588. [https://doi.org/10.1016/0346-251x\(97\)90167-6](https://doi.org/10.1016/0346-251x(97)90167-6)
8. Bayram, M. (2021). Teaching and assessing intercultural communicative competence. In Multilingual Matters eBooks. <https://doi.org/10.21832/9781800410251>
9. Bayram, M. S., & Fleming, M. (1998). Language learning in Intercultural Perspective: Approaches through drama and ethnography. <https://ci.nii.ac.jp/ncid/BB09207290>
10. Bayram, M., Gribkova, B., & Starkey, H. (2002). Developing the Intercultural Dimension in Language Teaching: a practical introduction for teachers. <http://lrc.cornell.edu/rs/roms/507sp/ExtraReadings/Section0/uploads/File1235272745204/InterculturalDimensionBayram.pdf>
11. Gudykunst, W.B., & Kim, Y.Y. (2003). Communicating with strangers: An approach to intercultural communication (4th ed.). New York, NY: McGraw-Hill.
12. Hymes, D., 1972. On Communicative Competence. Sociolinguistics. Harmondsworth: Penguin.
13. Jumanova K. G., Makhmudov K. S. Teaching culture as a tool to English teaching methodology // Science and Education. – 2020. – №1(3). – 591-594.
14. Kramsch, C. (1995). The cultural component of language teaching. Language Culture and Curriculum, 8(2), 83–92. <https://doi.org/10.1080/07908319509525192>
15. Parmonova N. A. Effective methods to teach intercultural communication to Uzbek students // International Journal of Advance Scientific Research, №3(05), 2023. – 83-87.
16. Passov, E. I. (1991). Communicative method of teaching foreign language speaking. Education, 223.
17. Tomalin, B., & Stempleski, S. (2013). Cultural awareness. Oxford University Press.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ S/9 (4) – 2024*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Bog‘lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).